



OLIIY TA'LIMDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNI AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QITISHNING MUHIM YO'NALISHLARI

Hamroyev R. R.

Buxoro davlat tibbiyot instituti assistenti

Tayanch so'zlar: axborot texnologiyalari, xorijiy tajriba, ta'lim, innovatsion texnologiya, ijtimoiy-gumanitar fanlar.

Ключевые слова: информационные технологии, зарубежный опыт, образование, инновационные технологии, социально-гуманитарные науки.

Key words: information technology, foreign experience, education, innovative technology, socio-humanities.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dan foydalangan holda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga yo'naltirish, har bir talabaning individual xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olishga tayyor samarali professional hamkorlik, ilg'or pedagogik tajribani almashish muhimdir.

Ayniqsa, har bir sohada islohotlarni amalga oshirishda axborot texnologiyalari asoslarning belgilanganligi mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Aloqa to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi, "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonunlari bugungi kun amaliyotida ayni muddao bo'lgan joriy amaliyot sifatida qaralmoqda.

Yurtimizda dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilari to'g'risidagi axborotning yagona elektron bankini yaratish va istiqbolli loyihalarni hamda innovatsion komputer texnologiyalarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan iste'dodli yosh dasturchilarni qo'llab-quvvatlash va milliy dasturiy mahsulotlarning ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda mamlakatimizda dasturiy mahsulotlar



ishlab chiqarish bozorining holati va salohiyati to'g'risida axborot berish qonun hujjatlarida belgilab qo'yildi.

Respublika Prezidenti imzosi bilan tasdiqlangan O'zbekiston respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunida zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarining ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish, axborot xizmatlari va axborot resurslari, shu bilan birga axborot texnologiyalari bozorini vujudga keltirishga ko'maklashish, dasturiy ta'minot vositalari orqali amalga oshiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, kichik va katta tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, jalb etiladigan investisiyalar uchun kerakli sharoit yaratish; ehtiyoj bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, amalga joriy qilinadigan ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini boshqaruv organlari va barcha sohalardagi turli xizmat ko'rsatish, jumladan, tibbiyot sohasiga axborot xizmatlarini joriy etish bo'yicha bosqichma-bosqich o'tkazilayotgan islohotlar o'z samarasini bermoqda. Respublikamiz prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori joriy etilishi "Elektron hukumat" tizimi shakllanishi takomillashuvini jadal sur'atlarga rivojlantirish darajasiga ko'tardi, aholi bilan o'zaro aloqa qilish va mavjud muammolar yechimini topishning imkonli mexanizmlarini yaratish mumkin bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitish oliy ta'lim o'quv-tarbiya jarayonlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biridir. Zero, ta'lim sohasida nafaqat jamiyatning yangi axborot muhitini shakllantiradigan, balki o'zlari ham ana shu yangi sharoitda yashash va ishlydigan insonlar tayyorlanadi va ta'lim oladi. Jamiyatni axborotlashtirish - bu jamiyatning har bir a'zosiga qonuniy maxfiy bo'lganlardan tashqari har qanday axborot manbalaridan erkin foydalanishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy omillar majmuidir.

Ta'limni axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitish jarayonlarini o'rganuvchi xorijiy olimlar axborot texnologiyalari imkoniyatlariga ko'plab baho berishadi.

Robert I.V. axborot texnologiyalar imkoniyatlarini o'qitishga maqsadli yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi asosiy pedagogik maqsadlarini belgilaydi.

1. Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'quv jarayonining barcha bosqichlarini faollashtirish:

- o'quv jarayonining samaradorligi va sifatini oshirish;
- kognitiv faollik faolligini oshirish;



- fanlararo aloqalarni chuqurlashtirish;
- kerakli ma'lumotlarni qidirish hajmini oshirish va optimallashtirish.

2. Talaba shaxsini rivojlantirish, shaxsni axborot jamiyatida qulay hayotga tayyorlash:

- fikrlashning har xil turlarini rivojlantirish;
- muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish;
- qiyin vaziyatda eng yaxshi qaror qabul qilish yoki yechim taklif qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- kompyuter grafikasi, multimedia texnologiyasidan foydalanish orqali estetik tarbiya;
- axborot madaniyatini, axborotni qayta ishlashni amalga oshirish qobiliyatini shakllantirish;
- vazifa yoki vaziyatni taqlid qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- eksperimental tadqiqot faoliyatini amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish.

3. Jamiyatning ijtimoiy buyurtmasini bajarishga qaratilgan ish:

- axborot savodxonini shaxsni tayyorlash;
- foydalanuvchini kompyuter vositalari bilan tayyorlash;
- informatika sohasida kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish.

Krasilnikova V.A. yuqoridagi maqsadlarni pedagogik jarayon uchun yana bir muhim – pedagogik faoliyatning axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish bilan to'ldirdi.

- o'qituvchilar va talabalarni axborot-metodik ta'minlashni sezilarli darajada kengaytirish;
- kompyuter kommunikatsiyalariga asoslangan muloqot va hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish;
- yoshi, yashash geografiyasi va vaqtdan qat'i nazar, uzluksiz malaka oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatlarini ta'minlash;
- turli darajadagi (global, korporativ, mahalliy) kompyuter tarmoqlaridan faol foydalanish asosida yagona axborot-ta'lim muhitini yaratish.

Mashbits E.I. an'anaviy sinflarga nisbatan o'qitishda kompyuterdan foydalanishning muhim afzalliklari to'plami sifatida quyidagilarni nazarda tutadi.

1. Axborot texnologiyalari o'quv ma'lumotlarini taqdim etish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

2. Kompyuter talabalarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Motivatsiya muammoni to'g'ri hal qilish uchun yetarli rag'batlantirishdan foydalanish orqali ortadi.

3. AKT talabalarni o'quv jarayoniga jalb etib, ularning qobiliyatlarini maksimal darajada ochib berishga, aqliy faollikni oshirishga hissa qo'shadi.

4. Ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish o'quv vazifalarini qo'yish va ularni hal qilish jarayonini boshqarish imkoniyatlarini oshiradi. Kompyuterlar turli ob'ektlar, vaziyatlar, hodisalarning modellarini qurish va tahlil qilish imkonini beradi.

5. AKT o'quv jarayonini boshqarishda moslashuvchanlikni ta'minlagan holda talabalar faoliyatini nazorat qilishni sifat jihatidan o'zgartirish imkonini beradi.

6. Kompyuter o'quvchilarda refleksiyani shakllantirishga yordam beradi. O'quv dasturi talabalarga o'z harakatlarining natijasini tasavvur qilish, xatoga yo'l qo'yilgan muammoni hal qilish bosqichini aniqlash va uni tuzatish imkonini beradi.

Barcha sohalar kabi ta'limga ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan kirib keldi va ta'siri shunchalik yuqoriki, buning natijasida ular pedagogik texnologiya va o'quv jarayonining shakllariga texnik yordam ko'rsatish uchun qo'llaniladigan vositadan, ta'lim va tarbiya jarayonlaridagi o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi vositaga aylanmoqda.

O.I.Sokolov axborotkommunikatsion texnologiyalar, axborot-ta'lim vaziyatining ichida jarayonni tashkil qilish vositalari, o'quv-biluv kommunikatsiyalarini joriy qilishdagi ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va unga tezkorlik bilan kirishish, ta'limiy ilmiy kommunikatsiyani amalga oshirishni ta'minlovchi axborotni saqlash va axborotga tezkor kirishni, axborotni qayta ishlash, uni uzatishning dasturiy vositalarini o'z ichiga olgan faoliyatning bir tomoni sifatida aniqlagan.

A.X.Boymurodov tadqiqot ishida umumta'lim muassasalarida Kontentlarni boshqarish tizimi (CMS-content management system) texnologiyasi asosida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning o'quv-metodik ta'minoti (elektron darsliklar, video va audio materiallar, test savollari, fanga doir qo'shimcha adabiyotlar) elektron o'quv vositalaridan foydalangan ta'lim muhitini yaratish imkoniyatlarini izlash, iforimatika va axborot texnologiyalari fani mashg'ulotlarining o'quv-tashkiliy tuzilmasi o'qitish texnologiyalari (klaster tahlili, muammoli, komputer dasturiy ta'minotlari) hamda klaster obyekt va subyektlari o'rtasida integratsiyani ta'minlash masalalarini ko'rib o'tgan.

T.N.Jo'raev tadqiqot ishida talabalarning o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirish muammolari va pedagogik-psixologik aspektlari zamonaviy kasb buyurtmachining ehtyojlarini hisobga olgan holda aniqlab, raqamli texnologiyalar bilan o'zaro munosabatda pedagogik-psixologik asoslarning professiogrammaga integrativ ta'sirini aniqlash, kasbiy faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini belgilovchi indikatorlar asosida o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirish modeli va raqamli ta'lim muhitini yaratuvchi didaktik vositalar ishlab chiqish kabi qator masalalarini ko'rib o'tgan.

S. X. Aliboyevning tadqiqot ishida talabalarning bo'lajak kasbiy faoliyatga tayyorgarligi monitoringini olib borish, baholash natijalarini qayd etish, yakuniy xulosalarni umumlashtirish imkonini beruvchi raqamli texnologiyalar yordamidagi



dasturlarni ishlab chiqish, interaktiv elektron ta'lim trenajyori oliy o'quv yurtlari ta'lim jarayonlarida joriy qilinadigan ta'lim resurslari majmuasi sifatida shakllantirish, talabalarning kasbiy kompetentlik darajasini aniqlashtirib borishga xizmat qiluvchi topshiriqlar majmuasini ta'lim amaliyotiga joriy etish masalalari ko'rib o'tilgan.

N.N. Samylkinaning tadqiqot ishida ta'lim natijalarini va ularning rivojlanish tendensiyalarini baholashning mavjud yondashuvlari, zamonaviy sharoitlarda hisoblagichlarga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish, ta'limda axborot texnologiyalaridan talabalarni o'qitish natijalariga qo'yiladigan talablarni ko'rsating va instrumental darajaga keltirish, belgilangan talablar asosida o'quv natijalariga qo'yiladigan talablarga erishishni tekshirish uchun test loyihalash texnologiyasini qurish, informatika mashg'ulotlari uchun test shaklidagi topshiriqlarni yaratish, testlarning natijadorligini amalda tekshirib ko'rish, informatikani integratsion yondashuv asosida o'qitishning metodik jihatlari o'rganilgan.

I.A. Petrovaning tadqiqot ishida individual muloqot tarzida o'qitish shaklini axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga joriy qilish, bilim oluvchilarning kognitiv yondashuvini rivojlantirish, o'z-o'zini boshqarishni takomillashtirishning metodik xususiyatlari, ta'lim jarayonini tashkil qilishda talaba shaxsiga yo'naltirilgan ilmiylik jihatlarining nazariy asoslari, axborot texnologiyalari o'qitilishida shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni elektron kurs-dizayner vositasida amalga oshirish, talabalarning informatikani o'zlashtirilishlarida mustaqil yondashishlarining protsessual modeli masalalari o'rganilgan.

R.M. Magomedov tadqiqot ishida talabalarda mantiqiy fikr yuritish xususiyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi dasturiy texnologiyalarni qo'llash, pedagogika universitetida obyektga yo'naltirilgan dasturlashni o'rgatishning mazmunli yo'nalishlari, metodik tomonlari, nazariy asoslari, bo'lajak informatika o'qituvchisining tizimli tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishga hissa qo'shuvchi obyektga yo'naltirilgan dasturlashni o'qitishning uslubiy jihatlari, dasturlash kursi, didaktik asoslari, metodik jihatlari, tizimli-mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan laboratoriya topshiriqlari tizimi masalalari tahlil qilingan.

N.N.Samylkinaning tadqiqot ishida umumta'lim informatika kursining tarkibiy va mazmuniy o'zgarishlarini tahlil qilish, integratsion jarayonlar ta'sirida o'rta umumiy ta'lim informatika mazmunini o'zgartirish, tarkibi va mazmunidagi o'zgarishlarni tahlil qilish, integrativ yondashuv asosida o'qitish, integrativ yondashuvga asoslangan chuqurlashtirilgan kursni amalga oshirishda uslubiy yondashuvlar, ushbu kurslarning tuzilishi va mazmunini ishlab chiqishning nazariy asoslari, ilg'or informatikani o'zlashtirish natijasida shakllanadigan kompetensiyalarning tarkibi va mazmuni, faol kurslarni bu fanga tadbiiq qilishning



natijadorligini tajribalarda tahlil qilish, texnika yoʻnalishidagi oliy oʻquv yurtlari talabalariga informatikani oʻqitishda oʻz-oʻzini boshqarish metodikasini qoʻllash masalalari ilgari surilgan va tadqiq qilingan.

J.N. Nilova tadqiqot ishida axborot texnologiyalarining maktab kursida dasturlash va modellashtirishni oʻrgatish usullari, psixologik imkoniyatlari, yuqori sinf talabalariga tizimli-faollik yondashuvi tamoyillarini amalga oshiruvchi dasturlashni oʻrgatish metodikasi kabi masalalar tahlil qilingan.

M.X. Allambergenovanning tadqiqot ishida interaktiv oʻquv majmualarni yaratish boʻyicha asosiy mezonlar, oʻquv-uslubiy majmualarning qismlari, ularning tuzilmaviy strukturasi, oʻquv majmualarini tayyorlashda interaktiv yondashuv masalalari, ularni yozishdagi asosiy shart va talablar, ayniqsa, pedagogik va psixologik xususiyatlarni oʻz ichiga oluvchi parametrlar, oʻquv majmuani axborot texnologiyalari uchun mazmun va mohiyatini tushunish hamda tanlashning ketma-ketlik bosqichlari, “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini oʻz ichiga olgan oʻquv majmuani tayyorlashdagi pedagogik texnologiyalar va ularni oʻquv jarayonida qoʻllash masalalari oʻrganilgan.

Oʻqitishning anʻanaviy usullarida jarayondagi yetakchi rolni oʻqituvchi bajaradi:

- dars maqsadi, uning vazifalaridan boshlab yangi axborotlar bilan tinglovchini tanishtiradi;
- darsda kiritilgan axborotni tushunish, uning vazifalarini shakllantirish, mashq qilishni tashkil etadi;
- ishni bajarishni nazorat qilish va korreksiya qilish (tuzatish)ni amalga oshiradi va natijalarni baholaydi.

Taʼlim oluvchilar esa, oʻz navbatida, dars mashgʻuloti maqsadlarini egallaydi, qabul qilingan axborotlarni idrok etadi, ularni oʻzlashtiradi, nazorat topshiriqlari va mustaqil ishlarni bajaradi, bajargan vazifalari uchun oʻz bahosini oladi.

Jamiyat taraqqiyotida sodir boʻlayotgan tub oʻzgarishlar barcha sohalarida oʻzgacha yangi yondashuvlar, amaldagi nuqtayi nazarlar, chora-tadbirlar hamda faoliyatga munosabatlarni zamonaviy tendensiyalar va standartlar asosida isloh etishni taqozo qilmoqda.

Adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-sonli qarori // Axborot texnologiyalari sohasida taʼlim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida –T., 2020.
2. Urinov U., Adizova S. Pedagogical conditions for the development of students in industrial practice. E3S Web of Conferences 284, 09017 (2021).
3. Urinov U. Social psychological priorities of social cooperation. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 2, 2020 Part II ISSN 2056-5852 Progressive Academic Publishing, UK Page 62 www.idpublications.org.



4. Urinov U. «Status and problems of cooperation with higher educational enterprise enterprises», International Journal of Psychosocial Rehabilitation, vol. 24, no. 8, pp. 5277-5282, 2020. ISSN: 1475-7192.

5. Sokolov O.I. O'quv natijalariga qo'yiladigan talablarni aniqlashtirish asosida informatika bo'yicha maktab o'quvchilarining o'quv yutuqlari testlarini ishlab chiqish. Ped. fan. nomzodi... diss. – Moskva, 2000. – 90 b.

6. Boymurodov A.X. Umumiy o'rta ta'lim tizimida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishning innovatsion klaster modeli: Ped. fan.falsafa dokt... diss.. – Chirchiq, 2021. – 190 b.

7. Jo'rayev T. N. Raqamli texnologiyalar asosida talabalar o'quv-biluv faoliyatini takomillashtirish metodikasi: Ped. fan.falsafa dokt... diss. avtoref. – Qarshi, 2022. – 64 b.

8. Aliboyev S.X. Interaktiv elektron ta'lim trenajyorlarini yaratish va undan foydalanish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan.falsafa dokt... diss. – Toshkent, 2020. – 64 b.

9. Samylkina N. N. O'quv natijalariga qo'yiladigan talablarni aniqlashtirish asosida informatika bo'yicha maktab o'quvchilarining o'quv yutuqlari testlarini ishlab chiqish. Ped. fan. nomzodi... diss. – Moskva, 1999. – 80 b.

10. Petrova I. A. Informatika fanini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan o'qitishda talabalarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirishning nazariy va uslubiy jihatlari. Ped. fan. dokt... diss. – Moskva, 2018. – 32 b.

11. Magomedov R. M. Obyektga yo'naltirilgan dasturlashni o'rganishda bo'lajak informatika o'qituvchisining tizimli-mantiqiy tafakkurini shakllantirish. Ped. fan. nomz... diss. – M.: –2002. - 98 b.

12. Samylkina N. N. Informatikadan umumta'lim kursining tuzilishi va mazmuni. Ped. fan. doktori... diss. – Moskva, 2021. – 80 b.

13. Nilova J. N. Kengaytirilgan reallik texnologiyasi asosiy maktabning informatika kursida o'quv ob'yekti va o'qitish vositasi sifatida. Ped. fan.nomzodi... diss.. – Sankt-Peterburg, 2021. – 70 b.

14. Allambergenova M. X. Informatikadan o'quv majmualari yaratish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish: Ped. fan.falsafa dokt... diss. avtoref. –T. 2,012. – 64 b.

15. Самиева Ш. X., Нарзуллаева Ф. Ф. Современные подходы к реализации принципа дуально-го обучения в профессиональном образовании //Социально-гуманитарные проблемы образования и профессиональной самореализации (Социальный инженер-2021). – 2021. – С. 69-72.

16. Uzbekistan D. S. Technology, Content, Form And Methods Of Independent Work Of Students In Modern Conditions //Technology. – 2020. – Т. 29. – №. 07. – С. 3344-3348.

17. Hikmatovna S. S. et al. Professional development of the teacher's personality in the system of secondary special vocational education //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 2946-2949.

РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada o'sib kelayotgan o'quvchilarning tanlagan kasbini puxta egallashi va ijtimoiy-gumanitar fanlarni axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish borasidagi vazifalarni amalga oshirishning muhim yo'nalishlari tahlil etilgan.

РЕЗИОМЕ

В данной статье проанализированы важные направления реализации поставленной перед подрастающей студенческой молодежью задачи в освоении выбранной профессии и преподавании социально-гуманитарных наук с использованием информационных технологий.

SUMMARY

This article analyzes the important areas of implementation of the task set by the growing student in the acquisition of the chosen profession of young people and teaching social and humanitarian sciences using information technology.